

MATYUSUF XARRATOV HAYOTI VA IJODIY FAOLİYATI.

Shukurullayeva Sevinchoy Qahramon qizi

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

“Musiqqa san’ati” fakulteti

San’atshunoslik: “Musiqashunoslik” mutaxassisligi

2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **v.v.b.dotcent Rajabova Nodira Fattayevna**

Anotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq musiqasining yirik namoyandasi, bastakor, cholg‘uchi, shoir va pedagog Matyusuf Xarratovning hayoti va ijodi yoritilgan. Uning xalq orasida mashhur bo‘lgan qo‘shiqlari, cholg‘u san’atidagi yutuqlari, shuningdek, musiqa ta’limi va ilmiy faoliyatdagi hissasi haqida ma’lumot beriladi. Xarratovning milliy musiqa rivojiga qo‘shgan hissasi bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Matyusuf Xarratov, o‘zbek musiqa san’ati, bastakor, cholg‘u asboblari, xalq qo‘shiqlari, pedagog, Chang asbobi, Xorazm musiqa maktabi, milliy musiqa merosi, musiqiy ta’lim, o‘zbek san’ati tarixiy shaxslari, “Xorazm musiqiy tarixchasi”, xalq bastakorlari.

Abstract: This article covers the life and work of Matyusuf Kharratov, a prominent figure in Uzbek folk music, composer, instrumentalist, poet, and pedagogue. It provides information about his popular songs, his achievements in instrumental art, as well as his contribution to music education and scientific activities. Kharratov's contribution to the development of national music is still of great importance today.

Keywords: Matyusuf Kharratov, Uzbek musical art, composer, musical instruments, folk songs, teacher, Chang instrument, Khorezm Music School, national musical heritage,

musical education, historical figures of Uzbek art, "Musical History of Khorezm", folk composers.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и творчество Матюсуфа Харратова — выдающегося деятеля узбекской народной музыки, композитора, инструменталиста, поэта и педагога. Будет предоставлена информация о его популярных песнях, достижениях в инструментальном искусстве, а также о его вкладе в музыкальное образование и научную деятельность. Вклад Харратова в развитие отечественной музыки не утратил своего значения и в наши дни.

Ключевые слова: Матюсуф Харратов, узбекское музыкальное искусство, композитор, музыкальные инструменты, народные песни, педагог, инструмент чанг, Хорезмская музыкальная школа, национальное музыкальное наследие, музыкальное образование, исторические деятели узбекского искусства, «Музыкальная история Хорезма», народные композиторы.

Hayotimizni musiqasiz tasavvur qilish qiyin. Musiqa inson hayotida alohida o'rin tutadi. Asrlar davomida shakllangan milliy musiqa an'analari turli bastakor va sozandalar ijodida namoyon bo'lib kelgan. Har bir davrda o'zining iste'dodli bastakorlari yetishib chiqqan bo'lib, ular milliy va zamonaviy musiqa uslublarini uyg'unlashtirib, san'atimizni yanada boyitganlar. Shunday bastakorlardan biri- Matyusuf Xaratovdir. U bastakor, sozanda, xonanda va shoir sifatida milliy musiqamizni boyitgan, ko'plab kuy va qo'shiqlar yaratgan. Shu bilan bir qatorda Matyusuf Xaratov Xorazmda birinchi musiqa maktabini tashkil qilgan va uni boshqargan inson hisoblanadi. U milliy kuy va qo'shiqlarni yaratish bilan birga, chang asbobining imkoniyatlarini kengaytirib, uni takomillashtirgan insondir.

Chokar (xizmatkor) taxallusi bilan ijod qilgan xonanda, sozanda(chang, Tanbur), bastakor va shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Matyusuf Xarratov 1889-yilda Xiva shahrida Shayxlar qishlog'ida dunyoga kelgan. M.Xarratov yoshligidan musiqachi va shoirlar muhitida o'sgan. Uning otasi Matyoqub Xarratov xalq sonandasi, maqomchi va xattot bo'lgan. M.Xarratov asosan bobosining qo'lidan tarbiya olgan. Bobosining sevimli nabiralaridan biri bo'lib yoshligidan ko'p narsalarni o'rgatgan. Olti

yoshidan boshlab qishloq maktabida va Xiva madrasasida o`qigan. Bu yerlarda ta`lim olib arab, fors, turk tillarini, she`riyat qoidalari va shakllarini o`rganadi. Shu yerda shoir Komil Xorazmiyning o`gli, shoir va tanburchi Matrasul Mirzaboshi (taxallusi Mirzo)dan ham ko`p narsalarni o`rgangan va shu vaqtlarda o`zi ham Chokar taxallusi bilan she`rlar yoza boshlaydi. 7 yoshidan boshlab xonanda va sozandalardan bilimlar ola boshlaydi. Ulardan doira, garmon, tanbur, g`ijjak, chang, dutor chalishni va ashula aytishni o`rgangan. 1920-yilga qadar o`z yurtidan chiqmasdan shu yerda xizmat qilgan. Keyinchalik 1920-yilga kelib Xorazmda birinchi musiqa maktabini tashkil qilib, 1928 yillar oralig`ida shu yerda rahbar bo`lib ishlagan. Otasi ham shu maktabda yoshlarga maqom o`rgatgan. Lekin maktabning milliy musiqani o`rganish bilan bog`liq faoliyati uzoq davom etmadi. 1924-25 yillarning o`zidayoq u butunlay boshqa yo`nalishdagi “Bolalar uyi” ga aylantirildi. Keyinchalik 1928-32 yillar oralig`ida Samarqandda tashkil etilgan “Musiqa va xareografiya ilmiy-tekshiruv instituti” da “Xorazm maqomlarini yoshlarga o`rgatish uchun taklif etilgan. So`ngra markaz Toshkentga ko`chirilishi munosabati bilan 1935-37yillar oralig`ida poytaxt radiosida sozandalik vazifasini bajargan. Tojikiston Respublikasining radio eshtirish musiqa bo`limini ochilishida o`z hissasini qo`shgan. 1937-yilga kelib Navoiy teatrida sozanda bo`lib ishlay boshlagan. Bu yerda 1950-yilgacha faoliyat yuritgan. 1937-yilda Moskvadagi o`zbek adabiyoti va san`atining o`n kunligida ijrochi sifatida faol qatnashgan. Moskvadan qaytgach, 1937-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo`limida o`qiy boshlagan.

M.Xarratov o`zining hayot yo`li haqida shunday degan: “ Toshkent davlat konservatoriyasida o`qib yurgan paytlarimda yevropa nota yozuvini o`rgandim. Musiqa nazariyasi, tarixi va klassik kompozitorlarning hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishdim. Uch yil konservatoriyada o`qidim. 1935-49- yillarda O`zbekiston radio komitetida sozanda va xonanda lavozimida ishlab, qo`shiq va kuylar yaratdim. 1938-yilda O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi tashkil qilish ta`sis komissiyasiga a`zo bo`ldim. 1940-yili Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindim.

Ikkinchi jahon urushi yillarida radioda ishlash bilan birga bir necha vatanparvarlik ruhida qo`shiqlar bastaladim. Ular orasida: “Sevimli Vatan”, “Davron”, “Yigitlar” (Uyg`un so`zi), “Baxodir yigitlar” (Oybek so`zi), “Pulemyot”, “Qahramon uchuvchilar”,

“Zenitchi”, “Quruvchi”, “Tankist”, “Oq oltin” (Zafar Diyor soʻzlari), “Davron bizniki” (A. Bobojonov soʻzi), raqs “Farxod ufori” nomli qoʻshiqlarim va raqs musiqalarim yakka xonanda, xor va raqs jamoalarining repertuarlaridan joy oldilar.”

1929-41-yilga qadar oʻzining sheʼrlariga kuylar bastaladi. “Kolxoʻzchi”, “Gʻayratim paxtaga”, “Zindabod dehqoni”, “Paxtaga ahamiyat bering”, “Chindani paxta”, “Paxtachilik yashnasin”, “Paxta teramiz”, “Kolxoʻzga boraylik”, Abdullayev soʻziga “Mening togʻim” va oʻz soʻziga “Oʻzing”, “Muxabbatim”, “Shaxlo koʻzlar”, “Yoshlik tuygʻusi” kabi lirik ashulalar ham yaratgan. 1937-yili Moskvada oʻtkazilgan dekadada uning “Sayl va kolxoʻzda toʻy” sahnasida “Mustahzod ufori” ashulasi (soʻzi va kuyi oʻziniki) ijro etilgan. Shular bilan bir qatorda u oʻz ijodiy faoliyatida nota yozuvini oʻrgangandan keyingi yillarda Xorazm maqomlarini notaga yozishga kirishdi va ayrimlarini yozishga ulgurdi.

Nikolay Nazarovich Mironov rahbarligida tashkil topgan “Notali orkestr” yangi jamoasida changchi boʻlib ishladi. Changni diatonik uslubdan xromatik uslubga oʻtkazishda faol qatnashdi. Ushbu orkestr Belorussiyaning turli shaharlarida oʻtkazilgan gastrollarda ham qatnashdi.

Matyusuf Xarratov musiqa sanʼati va adabiyotida qilgan katta xizmatlari uchun 1944-yili “Oʻzbekistonda xizmat koʻrstgan sanʼat arbobi” yuksak unvoni bilan taqdirlangan. Uning farzandlaridan Foziljon va qizi Muslima Xarratovalar ham otalari izidan borib, oʻzbek sanʼati taraqqiyotiga munosib hissalarini qoshganlar. Fazandi Foziljonning istagi uchun unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang asbobini yasab bergan. Keyinchalik u Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist unvonini olgan va zamonaviy chang ijrochilik maktabining asoschisi hisoblaniladi, 1962-1963- oʻquv yilida Xorazm viloyati Urganch tumanida ochilgan musiqa bilim yurti ham Matyusuf Xarratovning nomi bilan ataladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Matyusuf Xarratov oʻzbek xalq musiqa sanʼatining rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan, serqirra ijodkor va fidoyi pedagog sifatida yuksak eʼtirofga sazovor boʻlgan. Uning bastakorlik mahorati, cholgʻuchilik sanʼati va musiqa taʼlimiga qoʻshgan hissasi milliy madaniyatimizning bebaho boyligidir. U yaratgan ashulalar va cholgʻu kuylar bugungi kunda ham ijro etilib, xalq qalbidan mustahkam oʻrin

egallagan. Shuningdek, uning ilmiy va ma'rifiy faoliyati, yosh avlodga bergan saboqlari orqali Matyusuf Xarratov nomi o'zbek musiqasi tarixida abadiy saqlanadi. Bu maqolada keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, u nafaqat o'z davrining san'atkori, balki kelajak avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabbarov Axmad Xamidovich. O`ZBEKISTON BASTAKORLARI VA MUSIQASHUNOSLARI Toshkent "Yangi asr avlodi" 2004 365-368-bet
2. Olimboyeva Karima, Axmedov Maxmud O`ZBEK XALQ SOZANDALARI, T., 1959
3. O`ZBEKISTON MILLIY ENSKLOPEDIYASI Toshkent "Davlat ilmiy nashriyoti"
4. Mulla Bekjon Rahmon o`gli, Muhammad Yusuf Devonzoda. XORAZM MUSIQIY TARIXCHASI Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti